

**ELEKTRON HUKUMAT VA BARQAROR RIVOJLANISH MAQSADLARI:
TIZIMLI ADABIYOTLAR SHARHI**

Axmadjonov Oyatulloh Kamoliddin o'g'li

Toshkent davlat yuridik universiteti

Ommaviy huquq fakulteti 2-kurs talabasi

Telefon raqam: +998971630618

Annotatsiya: *Elektron boshqaruv butun dunyo bo'ylab davlat institutlarini transformatsiya qilishda muhim omilga aylangan. Tez sur'atlarda rivojlanayotgan raqamli davrda turli mamlakatlar hukumatlari samaradorlikni, shaffoflikni va qaror qabul qilish jarayonlarida jamoatchilik ishtirokini oshirish maqsadida axborotkommunikatsiya texnologiyalarini (AKT) tobora keng qo'llamoqda. Ushbu maqola so'ngi yillarda elektron boshqaruv va barqaror rivojlanish maqsadlarini tizimli o'rgangan turli ilmiy tadqiqotlarni tushuntirishga maqsad qiladi. Tanlash va chiqarib tashlash mezonlari asosida elektron boshqaruv va barqaror rivojlanish maqsadlariga oid jami 20 dan ziyod maqola aniqlangan. Natijada, ushbu tadqiqot elektron boshqaruvning barqaror rivojlanish maqsadlariga erishishga qanday yordam berishi, shuningdek, ularning davlat siyosati va kelajakdagi boshqaruv amaliyotlariga ta'siri borasida ilmiy bilimlarni sezilarli darajada boyitadi.*

Kalit so'zlar: *elektron hukumat, elektron boshqaruv, barqaror rivojlanish maqsadlari, tizimli adabiyotlar sharhi, hukumat.*

KIRISH

Hukumatda AKTning qo'llanilishi yanada barqaror, murakkab ijtimoiy, iqtisodiy va ekologik chaqiriqlarga bardosh bera oladigan davlat institutlarini shakllantirishga xizmat qilmoqda. Raqamli davr hukumatlarning faoliyat yuritish uslubini o'zgartirdi va elektron boshqaruv davlat institutlari duch kelayotgan global muammolarni hal qilishda muhim vositaga aylandi.

Elektron boshqaruv turli axborot texnologiyalaridan hukumat veb-saytlari, mobil ilovalar, elektron xizmatlar tizimlari va onlayn muloqot platformalaridan foydalanishni o'z ichiga oladi. Bu texnologiyalar hukumat, fuqarolar va xususiy sektor o'rtasidagi o'zaro aloqalarni yengillashtiradi. E-hukumat joriy etilishi byurokratiyani qisqartiradi, davlat xizmatlari ko'rsatish jarayonini tezlashtiradi, shaffoflikni oshiradi va qaror qabul qilishda jamoatchilikning kengroq ishtirokini

Kelajakdagi milliy raqobatbardoshlik uchun keng miqyosda raqamli texnologiyalarni qo'llash zarur degan g'oya boshqaruv tizimiga ham jiddiy ta'sir ko'rsatmoqda. BMT va

Yevropa Ittifoqi kabi yirik xalqaro tashkilotlar tomonidan qo'llab-quvvatlanayotgan mazkur yo'nalish nafaqat zamonaviy siyosiy kun tartibida aks etadi, balki amaliy siyosiy tashabbuslarda ham ko'rinadi. Masalan, AQSh tomonidan ochiq ma'lumotlar siyosatini joriy etish ma'lumotlar almashinuvi va tarqatilishini osonlashtirishga xizmat qilmoqda (Møller & Olafsson, 2018).

Biroq, ko'plab davlatlar elektron boshqaruvni joriy etgan bo'lsa-da, davlat institutlarining barqaror faoliyatini ta'minlash uchun hanuz yengib o'tilishi zarur bo'lgan bir qator muammolar mavjud. Bu muammolarga ma'lumotlar xavfsizligi masalalari, aholining raqamli savodxonligining pastligi va texnologiyaga teng bo'lmagan kirish imkoniyati kiradi. Shu sababli, elektron boshqaruvning barqaror rivojlanish maqsadlariga ta'sirini tizimli ravishda o'rganish uchun keng qamrovli va tizimli tadqiqotlar zarur.

Shu zamin asosida ushbu maqolada quyidagi tadqiqot savollari qo'yiladi:

Barqaror rivojlanish maqsadlariga erishish uchun elektron boshqaruvni joriy etishdagi asosiy tendensiyalar qanday va bu tendensiyalar BRMga erishish jarayoniga qanday ta'sir ko'rsatadi?

Elektron boshqaruv va BRM o'rtasidagi munosabatlarga oid muhokamalarda qaysi atamalar yoki mavzular doimiy uchraydi va ular elektron boshqaruvni barqaror rivojlanish bilan integratsiyalash jarayonidagi qiyinchiliklar yoki imkoniyatlarni qanday aks ettiradi?

Avvalgi tadqiqotlarning elektron boshqaruv va BRM bo'yicha asosiy maqsadlari qanday bo'lgan va barqaror rivojlanishga erishishda bu ikki yo'nalish o'rtasidagi bog'liqlikni mustahkamlovchi qanday asosiy xulosalar chiqarilgan?

Elektron boshqaruv va BRM o'rtasidagi munosabatni o'rganishda odatda qanday tadqiqot usullari qo'llanilgan va qanday o'zgaruvchilar tadqiqot markazida bo'lgan?

2. Adabiyotlar sharhi

2.1. Elektron boshqaruv (E-Governance)

Elektron boshqaruv yoki e-governance — dunyoning turli mamlakatlarida davlat boshqaruvida tez sur'atlarda rivojlanayotgan tushuncha hisoblanadi. Ushbu boshqaruv turi axborot va kommunikatsiya texnologiyalaridan (AKT) foydalanish orqali samaradorlikni, shaffoflikni, fuqarolarning ishtirokini hamda davlat xizmatlarining sifatini oshirishni maqsad qiladi (Kuzior va boshq., 2023). E-governance va e-government o'rtasida farq mavjud: e-governance hukumat va fuqarolar o'rtasidagi texnologiya orqali vositalashtirilgan munosabatni anglatadi, e-government esa hukumatning elektron vositalar orqali ma'lumot taqdim etishi va odatiy tranzaksiyalarni amalga oshirishini bildiradi.

E-governance AKTni davlat boshqaruvining turli jabhalarida — davlat xizmatlarini ko'rsatish, qaror qabul qilish, ma'muriy boshqaruv, hukumat va fuqarolar o'rtasidagi kommunikatsiyada qo'llashni o'z ichiga oladi. Uning asosiy maqsadi — davlat faoliyatida

samaradorlik, hisobdorlik va ochiqlikni ta'minlashdir. E-governance birinchi bor 1990-yillarda internet texnologiyalari rivojlanishi bilan shakllandi. AQSh, Singapur va Hindiston elektron boshqaruvni dastlab joriy qilgan davlatlardan biridir. Shundan beri ko'plab mamlakatlar o'z elektron boshqaruv tashabbuslarini rivojlantira boshladi.

E-governance jamiyatga yanada aniqroq va qulay xizmatlar ko'rsatish, shu orqali ijtimoiy-iqtisodiy sharoitlarni yaxshilashga xizmat qiladi. E-governance odatda hukumat–fuqaro (G2C), hukumat–hukumat (G2G), hukumat–xodim (G2E) va hukumat–biznes (G2B) yo'nalishlari orqali namoyon bo'ladi. Bu konsepsiya davlat ma'lumotlari va xizmatlarini aholiga yetkazishning asosiy vositasidir. E-governance paradigmasining ko'plab elementlari muhim muammolarni hal qilish salohiyatiga ega bo'lib, ular 1-rasmda ko'rsatilgan.

"1-rasm"da elektron boshqaruvning turli asosiy jihatlari tasvirlangan. Davlat idoralari turli boshqaruv elementlarini birlashtirgan e-boshqaruv xizmatlarini yaratishga intilmoqda. Innovatsiyaga asoslangan modullar va tizimlar ochiq hududlarda foydalanish uchun ishlab chiqilmoqda, bu esa oddiy fuqarolarga ushbu tizimdan bimalol foydalanish imkonini beradi. E-governance jarayonlari onlayn boshqaruvga asoslangan bo'lgani uchun, tadqiqotlar va amaliyotlar ochiq ma'muriy xizmatlarga tez va aniq kirishni ta'minlashi zarur (Zichová, 2022).

E-governance'ning birinchi afzalligi — maksimal darajada foydalanish imkoniyatining oshishi: fuqarolar istalgan vaqtda, istalgan joydan davlat xizmatlaridan onlayn foydalanishi mumkin (Ladychenko va boshq., 2020).

Ma'muriy jarayonlar avtomatlashtirilishi va ma'lumotlar bazalari orqali takomillashtirilishi natijasida shaffoflik oshadi va davlat ma'lumotlariga umumiy kirish imkoniyati yaxshilanadi. Fuqarolarning qaror qabul qilish jarayonlaridagi ishtiroki ham kuchayadi (Leelavathy & Nithya, 2021).

Shu bilan birga, Linkov va boshqa bir qator olimlar e-governanceni joriy etishda ko'plab muammolar mavjud. Birinchidan, ma'lumotlar xavfsizligi: shaxsiy va maxfiy ma'lumotlarni himoya qilish katta muammo hisoblanadi. Ikkinchidan, texnologiyaga kirish imkoniyati: barcha aholining internet yoki kompyuterga teng imkoniyati yo'q, bu esa ayrim guruhlarini chetda qoldirishi mumkin. Uchinchidan, texnologiyadan foydalanish va tushunishdagi tafovutlar raqamli tengsizlikka olib keladi. To'rtinchidan, e-governance tizimlarini joriy etish va doimiy qo'llab-quvvatlash katta mablag' talab qiladi.

Shunga qaramay, ayrim davlatlar elektron boshqaruvni muvaffaqiyatli amalga oshirgan deb hisoblanadi. Masalan, Hindistonning "Digital India" dasturi orqali davlat xizmatlarini ko'rsatish shakli tubdan o'zgargan bo'lib, turli davlat sohalarida texnologiyalar keng joriy etilgan. Singapur esa o'zining yuksak darajada rivojlangan e-governance tizimi — MyInfo

xizmati bilan mashhur, ushbu tizim fuqarolarga o'z ma'lumotlariga oson kirish imkonini beradi.

Elektron boshqaruv texnologiyalar rivojlanishi bilan birga izchil o'sib bormoqda. Kappnerning fikricha, agar u to'g'ri amalga oshirilsa, davlat xizmatlari sifatini oshiradi va hukumatning ochiqqligini kuchaytiradi. Ammo muvaffaqiyatga erishish uchun xavfsizlik, raqamli tengsizlik kabi muammolarni to'g'ri hal qilish zarur.

2.2. Barqaror rivojlanish maqsadlari

Barqaror rivojlanish maqsadlari (SDGs) — Birlashgan Millatlar Tashkiloti (BMT) tomonidan barcha uchun barqaror va adolatli kelajak yaratish maqsadida boshlangan global tashabbusdir (Bebbington & Unerman, 2018). 2015-yilda Mingyillik rivojlanish maqsadlari (MDGs) o'rniga qabul qilingan ushbu maqsadlar, ayniqsa past va o'rta daromadli mamlakatlar (LMIC) hamda Afrika davlatlari uchun muhim ahamiyatga ega, chunki ular rivojlanish jarayonlarining markazida turadi. 2015-yilda jahon yetakchilari qashshoqlik va ochlikka qarshi kurashish uchun Barqaror rivojlanish maqsadlarini (SDGs) asosiy dastur sifatida qabul qildi. Barqaror rivojlanish iqtisodiyot, jamiyat va atrof-muhit o'rtasida muvozanat yaratishni maqsad qiladi.

Har qanday loyiha yoki rivojlanish tashabbusi kelajak avlodlar undan foydalanishi mumkin bo'lgan tarzda amalga oshirilishi lozim. Daromad olish imkoniyatlaridagi cheklovlar, ayniqsa Janubiy Afrikada, jamiyat barqarorligiga va rivojlanishiga to'sqinlik qiluvchi omil sifatida aniqlangan. Shu sababli, barqarorlik tamoyillarini jamiyatni rivojlantirish loyihalari va dasturlariga tatbiq etayotgan xalqaro rivojlanish institutlari, ayniqsa sektoral yoki infratuzilmaviy kreditlashda muhim o'rin egallaydi.

3. Natijalar va Muhokama

3.1 E-Governance mavzulari va Barqaror Rivojlanish Maqsadlari o'rtasidagi munosabat va guruhlash

6-rasmdagi tarmoq vizualizatsiyasi natijalari shuni ko'rsatadiki, 52 ta maqoladan 32 ta kontsept e-govemans va barqaror rivojlanish maqsadlari bilan bog'liq deb aniqlangan. VOSviewer orqali vizualizatsiya natijalariga ko'ra, turli ranglar bilan belgilangan 6 ta klaster mavjud bo'lib, har bir klasterda tadqiq qilingan dominant kontseptlar ro'yxati keltirilgan. Ushbu tasnif avvalgi tadqiqotlarda qaysi kontseptlar yoki mavzular ko'pincha muhokama qilinganini aniqlashga xizmat qiladi.

Jadval 1 ko'rsatadiki:

- 1-klaster (qizil): katta ma'lumotlar texnologiyasi (big data), COVID-19 pandemiyasi, raqamli texnologiyalar, e-govemans, ijtimoiy barqarorlik, barqaror rivojlanish va tizimli adabiyotlar sharhi mavzularini o'z ichiga oladi.

- 2-klaster (yashil): raqamli transformatsiya, demokratiya, jamoat sektori, boshqaruv, inson rivoji va innovatsion boshqaruv bilan bog‘liq.
- 3-klaster (ko‘k): e-govemans, e-govemansni amalga oshirish, AKT, onlayn boshqaruv, barqarorlik va e-govemansni amalga oshirish bo‘yicha tadqiqot mavzularini o‘z ichiga oladi.
- 4-klaster (sariq): fuqarolar ishtiroki, raqamli davlat boshqaruvi, egovemans, e-demokratiya, elektron platformalar va aqlli shaharlar mavzularini o‘z ichiga oladi.
- 5-klaster (binafsha): raqamli demokratiya, elektron uskunalar, sun‘iy intellekt va ijtimoiy media kontseptlarini o‘z ichiga oladi.
- 6-klaster (qora): raqamli transformatsiya, axborot texnologiyalari va barqaror rivojlanish maqsadlari mavzularini o‘z ichiga oladi.

Table 1. E-Governance and Sustainable Development Goals theme group	Concept	Total
Cluster1 (Red)	Big Data Technology, Covid-19 Pandemic, Digital Technologies, E-Government, Social Sustainability, SustainabilityDevelopment, Systematic Literature Review	8
Cluster2 (Green)	Digital Transformation, Democracy, Public Sector, Governance, Human Development, Smart Governance	6
Cluster3 (Blue)	E-Governance, E-Governance Implementation, ICT, Online Governance, Sustainability, Study Of E-GovernanceImplementation	6
Cluster4 (Yellow)	Citizen Participation, Digital Public Administration, E-Government, E-Democracy, E-Platform, Smart City	6
Cluster5 (Purple)	Digital Democracy, Electronic Equipment, Artificial Intelligence, Social Media	4
Cluster6 (Black)	Digital Technology, Information Technology, Sustainable Development Goals	3

3.2 E-Govemans mavzusida E-Government va Barqaror Rivojlanish Maqsadlari

Birinchi jadval shuni ko'rsatadiki, Birinchi Klasterda muhokama qilingan mavzulardan biri egovemans va barqaror rivojlanish maqsadlari bilan bog'liq "e-government" mavzusidir. Ushbu sharh ushbu mavzuga oid bir nechta maqolalarga e'tibor qaratadi, jumladan, Ladychenko va boshq., 2020 tadqiqoti dunyo bo'ylab e-government rivojlanishini o'rganadi, maqolada "How E-Government Supports Sustainable Development" misolida keltirilgan. Castro & Lopes, 2022 esa e-governmentning barqaror rivojlanish maqsadlariga erishishda muhim rol o'ynashini ko'rsatdi, bu esa mamlakatning ijtimoiy, iqtisodiy va ekologik omillarini o'z ichiga olgan moslashtirilgan sof tejashdan ko'rinadi. Tadqiqot shuningdek, e-government barqaror rivojlanishga erishish imkoniyatini, ayniqsa rivojlanayotgan va o'tish davridagi mamlakatlarda oshirishini aniqladi.

Shuningdek, yosh ham ishonch o'lchamlariga ta'sir qiladi. 26–35 yosh va 45 yoshdan oshgan fuqarolar hukumat saytlariga nisbatan ishonchsiz bo'lishadi. Ushbu tadqiqot ilgari mavjud bo'lmagan yangi tushunchalarni taqdim etadi va samarali e-government tashabbuslarini ishlab chiqishda foydali bo'lishi mumkin.

3.3 Raqamli Transformatsiya mavzusida E-Govemans va Barqaror Rivojlanish Maqsadlari

Ikkinchi Klasterda raqamli transformatsiya "e-govemans" yoki "barqaror rivojlanish maqsadlari" bilan bog'liq tadqiq qilingan mavzulardan biridir. ElMassah & Mohieldin, 2020 maqolasida raqamli transformatsiyaning lokalizatsiya va barqaror rivojlanish maqsadlariga ta'siri muhokama qilingan. Galushi & Malatji, 2022 esa COVID-19 pandemiyasi davrida Janubiy Afrikadagi qishloq hududlarida e-govemans va raqamli davlat boshqaruvi muammolarini o'rgangan. Raqamli transformatsiyaning afzalliklariga qaramay, qishloq hududlaridagi kambag'al aholi hukumat xizmatlari va texnologiyalarga kirishda qiyinchiliklarga duch keladi.

Mergel, 2021 "Yaxshi boshqaruv uchun 12 qoida" asosida raqamli transformatsiyaning demokratiya va yaxshi boshqaruvga ta'sirini o'rganib, imkoniyatlar va xavflarni ko'rsatadi. Seo & Myeong, 2020 esa "Government as a Platform" (GaaP) nomli yangi raqamli transformatsiyani ochib berdi, bu ma'lumotlarni samarali boshqarish, yuqori samaradorlik va past xarajatli hukumat tizimini yaratishda yordam beradi.

3.4 Barqarorlik mavzusida E-Govemans va Barqaror Rivojlanish Maqsadlari

Uchinchi Klasterda Pougel va boshq., 2018 e-govemans va barqarorlik o'rtasidagi munosabatni 30 ta maqolaga asoslangan ilmiy adabiyotlar sharhi orqali muhokama qilgan. Natijalar ikki asosiy qarashni ko'rsatadi: boshqaruv va barqarorlik. Ferguson & Wollersheim, 2023 esa barqaror rivojlanish va chidamlilik o'rtasidagi munosabatni kengroq

kontekstdagi tahlil qilgan. Hindriks, 2023 ijtimoiy barqarorlik ko'pincha e'tibordan chetda qolishini ko'rsatgan va u normative nuqtai nazardan ko'rilishi kerakligini ta'kidlaydi.

3.5 Aqlli Shahar mavzusida E-Govemans va Barqaror Rivojlanish Maqsadlari

To'rtinchi Klasterda "aqlli shahar" mavzusiga e'tibor qaratilgan. Lim & Yigitcanlar, 2022 Malayziyada smart city va e-ishtirok platformalaridagi ishtirokchi boshqaruvni o'rganib, elektron qaror qabul qilish maydonlari yetishmasligi va shahar rejalari bilan integratsiyalashishda samaradorlik yetishmasligini aniqladi. Leelavathy & Nithya, 2021 texnologiya, ko'p sohalik hamkorlik va bozor innovatsiyasi bilan aqlli shahar kontseptsiyasini taklif qilgan. Kuzior va boshq., 2023 esa e-govemansning aqlli shaharlarda integratsiyasini osonlashtirishini ko'rsatgan.

3.6 Sun'iy Intellect mavzusida E-Govemans va Barqaror Rivojlanish Maqsadlari

Beshinchi Klasterda "Sun'iy Intellect (AI)" mavzusi e-govemans va barqaror rivojlanish maqsadlari bilan bog'langan. Vinuesa va boshq., 2020 Alning sanoatdagi ta'siri va SDGga erishishga ta'sirini tahlil qilgan. Nasir va boshq., 2023 Alni jamiyat, iqtisod va atrof-muhit foydasi uchun ishlatish zarurligini ko'rsatgan. Tadqiqot SDG 9 eng yuqori vakillikka ega ekanini, SDG 5, 6, 14 va 15 esa eng past vakillikka ega ekanini aniqlagan. Bu AI rivojlanishi iqtisodiy o'sishga ko'proq e'tibor qaratadi, lekin ijtimoiy va ekologik masalalarni e'tiborsiz qoldirishi mumkinligini ko'rsatadi.

5. Xulosa

Xulosa qilib aytganda, ushbu tizimli adabiyotlar sharhi (SLR) shuni ko'rsatadiki, e-govemans barqaror rivojlanish maqsadlariga erishishda muhim rol o'ynaydi, chunki u hukumat jarayonlarida samaradorlik, shaffoflik va fuqarolar ishtirokini oshiradi. Biroq, e-govemansni joriy etishda bir qator muammolar mavjud, jumladan ma'lumot xavfsizligini ta'minlash, raqamli bo'linishni kamaytirish hamda moliyaviy va texnik to'siqlarni yengib o'tish. Turli joylarda kuzatilgan muvaffaqiyat farqlari mahalliy sharoitlarni hisobga olgan maxsus strategiyalar zarurligini ko'rsatadi. Kelajakdagi tadqiqotlar e-govemansning uzoq muddatli ta'sirini baholashga va uning murakkab tabiati bilan bog'liq masalalarni hal qilish uchun ko'p fanli yondashuvlarni qo'llashga qaratilishi lozim.

Texnologiyalarni e-govemansda qo'llash davlat sektorida innovatsiyalarni rag'batlantirishi, barqaror rivojlanish muammolariga yanada innovatsion va moslashuvchan yechimlar yaratishi mumkin. Biroq, e-govemans barqaror rivojlanish maqsadlariga erishish yo'lida bir qator muammolar va to'siqlarga duch keladi: yetarli bo'lmagan AKT platformalari, cheklangan inson resurslari, raqamli kirish va tengsizlik, ma'lumot xavfsizligi va maxfiyligi, jamoatchilik ishonchi, xarajatlar va tashkiliy madaniyatdagi o'zgarishlar.

Tizimli adabiyotlar sharhi (SLR) usuli qo'llanilgan bo'lsa-da, natijalar va oqibatlar hali to'liq aniqlanishi kerak. Shu bilan birga, ushbu tadqiqot bir nechta takomillashtirish sohalariga ega. Birinchidan, tahlilga faqat Scopus bazasidagi olti yillik maqolalar kiritilgan. Ikkinchidan, qidiruv natijalari faqat "e-govemans va barqaror rivojlanish maqsadlari" atamalariga qattiq e'tibor qaratilishi bilan cheklangan. Ushbu cheklovlar asosida kelajakdagi tadqiqotlar SDG maqsadlariga erishish bilan bog'liq masalalarni kengaytirish, bazalar va hujjat turlaridan foydalanishni oshirish orqali e-govemans tadqiqotini rivojlantirishi mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Adjei-Bamfo P., Maloreh-Nyamekye T., Ahenkan A. The role of e-government in sustainable public procurement in developing countries: A systematic literature review // Resources, Conservation and Recycling. – 2019. – Vol. 142, May 2018. – P. 189–203. – DOI: 10.1016/j.resconrec.2018.12.001.
2. Al-Raei M. Analysing of the sustainable development goals in Damascus University during Syrian crisis using the strategy in the university and the bibliometrics data from SciVal // Discover Sustainability. – 2023. – Vol. 4, №1. – DOI: 10.1007/s43621-02300140-y.
3. Al-Rzoky H.M.M., Al Mahdi S.K.A.R., Al-Samariy P.H.H. E-governance applications and usage patterns in developing countries // Periodicals of Engineering and Natural Sciences. – 2019. – Vol. 7, №3. – P. 1308–1317. – DOI: 10.21533/pen.v7i3.719.
4. Allam Z., Sharifi A., Bibri S.E., Chabaud D. Emerging Trends and Knowledge Structures of Smart Urban Governance // Sustainability (Switzerland). – 2022. – Vol. 14, №9. – DOI: 10.3390/su14095275.
5. Alonso-Muñoz S., Torrejón-Ramos M., Medina-Salgado M.-S., González-Sánchez R. Sustainability as a building block for tourism – future research: Tourism Agenda 2030 // Tourism Review. – 2023. – Vol. 78, №2. – P. 461–474. – DOI: 10.1108/TR-12-20210568.
6. Bebbington J., Unerman J. Achieving the United Nations SDGs: an enabling role for accounting research // Accounting, Auditing & Accountability Journal. – 2018. – Vol. 31, №1. – P. 1–24.
7. Bilquis M. E-Governance and Effective Bureaucratic Practices in Nigeria Civil // International Journal of Business and Administrative Studies. – 2018. – Vol. 4, №3. – P. 105–121. – DOI: 10.20469/ijbas.4.10003-3.

-
8. Castro C., Lopes C. Digital Government and Sustainable Development // Journal of the Knowledge Economy. – 2022. – Vol. 13, №2. – P. 880–903. – DOI: 10.1007/s13132021-00749-2.
9. Cerf M.E. The social-education-economy-health nexus, development and sustainability: perspectives from low- and middle-income and African countries // Discover Sustainability. – 2023. – Vol. 4, №1. – DOI: 10.1007/s43621-023-00153-7.
10. Chen C.L., Lin Y.C., Chen W.H., Chao C.F., Pandia H. Role of government to enhance digital transformation in small service business // Sustainability (Switzerland). – 2021. – Vol. 13, №3. – P. 1–26. – DOI: 10.3390/su13031028.
11. Congge U., Guillamón M.D., Nurmandi A., Salahudin, Sihidi I.T. Digital democracy: A systematic literature review // Frontiers in Political Science. – 2023. – Vol. 5. – DOI: 10.3389/fpos.2023.972802.
12. de Oliveira Fornasier M. The realization of e-democracy in the 21st century // Revista Da Faculdade de Direito Da UFMG. – 2021. – Vol. 78, №78. – P. 259–283. – DOI: 10.12818/P.0304-2340.2021v78p259.
13. Dhaoui I. E-Government for Sustainable Development: Evidence from MENA Countries // Journal of the Knowledge Economy. – 2022. – Vol. 13, №3. – P. 2070–2099. – DOI: 10.1007/s13132-021-00791-0.
14. Dziubaniuk O., Ivanova-Gongne M., Nyholm M. Learning and teaching sustainable business in the digital era: a connectivism theory approach // International Journal of Educational Technology in Higher Education. – 2023. – Vol. 20, №1. – DOI: 10.1186/s41239-023-00390-w.
15. ElMassah S., Mohieldin M. Digital transformation and localizing the Sustainable Development Goals (SDGs) // Ecological Economics. – 2020. – Vol. 169, August 2019. – P. 106490. – DOI: 10.1016/j.ecolecon.2019